

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar–oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar–oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 38870,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 119,4 %ni tashkil qildi.
- Toshkent shahrining jami xizmatlarda eng katta ulushni savdo xizmati egallagan 26,8 %.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 38 870,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyo'gina eng katta ulushni savdo xizmatlari (26,8 %), moliyaviy xizmatlar (24,0 %), transport xizmatlari (12,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,4 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi, %




2018 yil yanvar–oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 38 870,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|---------------------|---|
| Xizmatlar - jami | 38 870,7 | 111,4 |
| shu jumladan: | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 4 034,0 | 119,5 |
| moliyaviy xizmatlar | 9 332,8 | 119,4 |
| transport xizmatlari | 4 860,6 | 113,5 |
| shu jumladan: avtovoz xizmatlari | 2939,4 | 103,0 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 1 560,3 | 105,4 |
| savdo xizmatlari | 10 416,4 | 104,4 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 1 743,3 | 103,9 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 1 927,7 | 104,6 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 656,1 | 116,6 |
| ijara xizmatlari | 737,0 | 105,6 |
| kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 203,0 | 107,3 |
| shaxsiy xizmatlar | 502,5 | 103,1 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1 033,3 | 128,1 |
| boshqa xizmatlar | 1 863,7 | 105,6 |

2017 yil yanvar–oktyabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar–oktyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (128,1 %)da va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,5 %)da qayd etildi.


2018 yil yanvar–oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (103,1 %)da, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,9 %)da va savdo xizmatlari (104,4 %)da kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi (2,5 trln. so'm), savdo xizmatlari (2,1 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,8 trln. so'm), transport xizmatlari (0,8 trln. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (0,3 trln. so'm) oshishi kuzatilmogda.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (0,04 trln. so'm) qayd etildi.


**2018 yil yanvar–oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|----------------------------|---------------------|---|
| Toshkent shahri | 38 870,7 | 111,4 |
| tumanlar: | | |
| Uchtepa | 2 120,8 | 103,8 |
| Bektemir | 1 044,4 | 108,6 |
| Yunusobod | 7 284,5 | 114,5 |
| Mirzo Ulug'bek | 3 866,6 | 114,7 |
| Mirobod | 5 817,5 | 110,3 |
| Shayxontohur | 4 058,1 | 110,4 |
| Olmazor | 2 008,0 | 105,8 |
| Sergeli | 2 370,2 | 122,0 |
| Yakkasaroy | 2 540,4 | 107,1 |
| Yashnobod | 3 806,2 | 114,6 |
| Chilonzor | 3 711,2 | 109,2 |
| Tumandan tashqarida | 242,8 | 86,3 |

Tumanlar o'rtaida eng yuqori hajm bilan Yunusobod tumani (7284,5 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Yunusobod tumani bo'yicha 114,5 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda Toshkent shahrining har bir iqtisodiy tumanining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni tumanlar o'rtasida Yunusobod (18,7 %), Mirobod (15,0 %), Shayxontohur (10,4 %) va Mirzo Ulug'bek (9,9 %) tumanlari egallaydi.

Tumanlar o'rtasida eng kam ulush Bektemir (2,7 %), Olmazor (5,2 %), Uchtepa (5,5 %) va Sergeli (6,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli (122,0 %), Mirzo Ulug'bek (114,7 %), Yashnobod (114,6 %)Yunusobod (114,5 %), kabi tumanlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar–oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Uchtepa (103,8 %), Olmazor (105,8 %), Yakkasaroy (107,1 %) va Bektemir (108,6 %) kabi tumanlarida kuzatildi.

Harakatchanlik, qulaylik, nisbatan yuqori bo'limgan narxlar avtomobil transportiga uning boshqa turlari o'rtasida uzoq muddat birinchilikni saqlab qolish imkonini beradi. 2018 yil yanvar–oktyabr oylarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4 860,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida avtotransport xizmatlarining umumiylajmida tumanlarning ulushi, %




Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiylajmida eng past ulush Bektemir (3,0 %), Yakkasaroy (3,6 %), Uchtepa (6,7 %) va Chilonzor (6,9 %) tumanlarda qayt etildi.

Eng yuqori ulush Sergeli (25,1 %), Mirobod (13,5 %), Shayxontohur (8,8 %), Yunusobod (8,6 %) va Yashnobod (8,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish, yangi turdag'i xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, shuningdek taklif qilingan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2018 yil yanvar–oktyabr oylarida 19,5 % ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod (134,2 %), Yashnobod (130,1 %), Shayxontohur (121,6 %) va Chilonzor (119,5 %) tumanlaarda qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan uncha yuqori bo'limgagan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati Yakkasaroy (94,2 %), Mirobod (106,5 %) va Sergeli (107,2 %) tumanlarda kuzatildi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 1 560,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar–oktyabr oylariga nisbatan o'sish 5,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,0 % ga yetdi.

2018 yil yanvar–oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 76,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,8 % ga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida tumanlar o'rtasida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori va eng past hajmlarini solishtirilishi, %



Ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etildi. Ularning umumiy hajmidagi ulushi

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Yunusobod tumanida 428,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Eng past hajm Bektemir tumanida - 11,1 mlrd.so'm qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumani etakchilik qilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida uning ulushi 22,0 % ni tashkil qiladi. Shuningdek eng yuqori ko'rsatkichlar Chilonzor (14,1 %), Olmazor (11,8 %) va Yunusobod (11,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushini taqqoslanishi, %



Eng past ko'rsatkichlar Bektemir (0,6 %), Sergeli (2,1 %) va Yakkasaroy (4,4 %) tumanlarda kuzatilmogda.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 927,7 mlrd. so'mga tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 % ga oshdi.

2018 yil yanvar–oktyabr oylarida tumanlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Tumanlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Chilonzor (111,4 %), Sergeli (109,5 %), Mirzo Ulug'bek (108,5 %) va Olmazor (122,3 %) tumanlarida qayd etilgan.

Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Mirobod (95,3 %), Shayxontohur (99,3 %) va Yakkasaroy (100,3 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Toshkenr shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul:

Yo'ldoshev A.S.

(71) 230-88-15